

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAPAROV SALAMAT PERDEBAYEVICH

**KOMPARATIV ADYEKTIV IBORALAR SHAKLLANISHINING
KONSEPTUAL ASOSI VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI
(ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Saparov Salamat Perdebayevich

Komparativ adyektiv iboralar shakllanishining konseptual asosi va ularning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)..... 3

Сапаров Саламат Пердебаевич

Концептуальные основы образования компаративных адъективных фразеологизмов и их лексико-семантические особенности (на примере английского и каракалпакского языков)..... 27

Saparov Salamat Perdebaevich

The conceptual basis of formation of comparative adjectival phrases and their lexical-semantic features (in the example of English and Karakalpak languages)..... 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 PAQAMLI ILMIY KENGASH

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAPAROV SALAMAT PERDEBAYEVICH

KOMPARATIV ADYEKTIV IBORALAR SHAKLLANISHINING
KONSEPTUAL ASOSI VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI
(ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3567 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.karsu.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Shahriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdinazimov Shamshetdin Najimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yuldashev Akmal Gulomjonovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli Ilmiy kengashning «22» iyun 2024-yil soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

175 Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «31» May kuni tarqatildi.
(2024 yil «31» May dagi № 3 raqamli reestr bayonnomasi).



M.S. Kudaybergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashi raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E. Seytjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A. Kurbaniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida komparativ adyektiv iboralarning lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlariga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Iboralarni chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar jadal rivojlanib, natijada iboralarning tasnifi, milliy-madaniy o‘ziga xosliklari, botiniy va zohiriy sath ma’lumotlari kabi muammolar e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, komparativ adyektiv iboralarning muloqot vositasi sifatida faollashuvi va milliy-lisoniy xususiyatlarini ochib beruvchi kognitiv tilshunoslik sohasidagi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Komparativ adyektiv iboralar shakllanishining konseptual asosi va ularning leksik-semantik xususiyatlariga e’tibor qaratish, jumladan, lisoniy birliklarning konseptual asosini belgilash orqali tilning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligida olimlar chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida iboralarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash kabi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratmoqda. Tadqiqotlarda asosan, iboralarning intensivlik darajasini aniqlash, ekspressiv va hissiy semalarni ajratish, iboralar tarkibidagi rang komponentlarining belgilari, qiyosiy tuzilishiga bog‘liq izlanishlar olib borilmoqda. Shuning bilan birgalikda, xorijiy tillarni qoraqalpoq tili bilan qiyosiy-tipologik tadqiq qilish bo‘yicha izlanishlarni frazeologiya yo‘nalishida sinxron-qiyosiy frazeologizmlarni modellash tirish usullari vositasida olib boriladigan tadqiqotlarni yanada kuchaytirish zarurati mavjud bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganish va chog‘ishtirma tadqiq qilish masalalariga qaratilgan ishlar so‘nggi yillarda o‘z samarasini bermoqda. Chunonchi, "... globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir",¹ shu asnoda tilshunoslik sohasidagi til va madaniyat ta’siri bilan uyg‘unligini o‘rganish kabi masalalar bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida frazeologik tizimni kognitiv tilshunoslik me’yorlari asosida, jumladan, adyektiv iboralarning diskursiv xususiyatlari monografik aspektda tadqiq qilinmagan tadqiqot sanalmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF-5850 son

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Komparativ adyektiv iboralar (KAI)ning alohida jihatlari: intensivlik kategoriyasining ifodalanishi, komparativ frazeologizmlarda ekspressiv va hissiy semalarni ajratish, rang belgilari, adyektiv komparativ iboralarning qiyosiy tuzilishini tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud: tillar tizimida barqaror o'xshatishlarning universalligi nemis, fransuz, polyak, tojik va boshqa tillarda komparativ iboralarning tarkibiy guruhlarini ajratishga imkon berdi (Chernisheva 1964, 1970; Stepanov 1965; Gulumyants 1967; Nevedomskaya 1973; Babayev 1977; Nazaryan 1987; Ponyatina 1989).² 1978-yilda V.M.Ogoltseva rus tili tizimidagi qiyoslash tuzilmalariga oid fundamental tadqiqotini nashr qildi.

Adyektiv komparativ iboralar bo'yicha eng so'nggi tadqiqotlar qatoriga A.V.Terentevning "Adyektiv komparativ frazeologik birliklar til universalligi sifatida" mavzusidagi dissertatsiya ishi (ingliz tili materiali asosida)" kiradi.³ S.G.Karimovanning ingliz va rus tillarida metaforik xususiyatga ega adyektiv frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilishga, shuningdek, tadqiq qilinayotgan iboralar asosidagi metaforizatsiya mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishini misol qilib ko'rsatish mumkin⁴.

A.N.Lyubova ushbu frazeologizmlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida ingliz, nemis va norveg tillaridagi adyektiv komparativ iboralarni tadqiq qilgan⁵.

Mamlakatimiz tilshunoslik fani leksikologiya, grammatika, terminologiya va boshqa masalalarga bag'ishlangan yangi tadqiqotlar bilan boyib bormoqda. Ushbu

² Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка (Фразеология как система и ее связь с системой лексики). Автореф. дис. доктора филол. наук. – М., 1964. – 27 с.; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1970. – 199 с.; Степанов Ю.С. Французская стилистика. – М.: Высшая школа, 1965. – 355 с.; Гулумянц К.М. Структура, семантика и употребление устойчивых сравнений польского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Минск, 1967. – 28 с.; Неведомская О.М. Компаративные фразеологизмы немецкого языка в сопоставлении с русским. Автореф. дисс. на соискание уч. степени канд. филол. наук: – Л., 1973. – 14 с.; Бабаев Э. Образные сравнительные обороты в современном английском и таджикском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – М., 1977. – 16 с.; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1987. – 288 с.; Понятина Т.П. Структурная и функционально-семантическая характеристика устойчивых сравнений современного французского языка. Автореферат дис. канд. филол. наук: – Киев, 1989. – 17 с.

³ Терентьев А.В. Адъективные компаративные фразеологические единицы как языковая универсалия: На материале англ. яз.: Дис..., канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 1997. – 352 с.

⁴ Каримова С.Г. Адъективные фразеологические единицы метафорического характера в английском и русском языках: Дис..., канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 169 с.

⁵ Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: Дис..., канд. филол. наук. – М., 2009. – 207 с.

masalalar E.Berdimuratov, A.Dauletov, A.Bekbergenov, A.Najimov, A.Pirniyazova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan⁶. Shu bilan birga, qoraqalpoq tilshunosligida ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud. Ushbu mavzuga E.Berdimuratov, J.Eshbayev, S.Naurizbayeva, G.Aynazarova, T.Jumamuratov, G.Kdirbaeva, G.Usenova, A.Xudaybergenov⁷larning ilmiy ishlari yaqinroq. Ular tomonidan yaratilgan ikki tilli frazeologik lug‘atlar qiyosiy tahlil muammosini ma’lum darajada aks ettirgan. Sh.Kudyarovanning «Qaraqalpaq hám qazaq tillerindegi sózlerdiń leksika-semantikalıq ózgeshelikleri» nomli monografiyasida⁸ muammo chuqur bayon etilgan bo‘lib, ilmiy ishning uch bo‘limi to‘liq ushbu qardosh tillardagi frazeologizmlarning qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot rejasi “Qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va leksikologiya masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi adyektiv frazeologik birliklar guruhini qiyosiy jihatdan majmuaviy tahlil qilish, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi frazeologik birliklarning o‘ziga xos tarkibiy qismi tavsifini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va qoraqalpoq tillarida adyektiv iboralar strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish va ularning lisoniy qoliplarini ajratish;

komparativ adyektiv iboralarning semantik tuzilishini aniqlash;

komparativ adyektiv iboralar ko‘lamida yuzaga keladigan sinonimik, antonimik, paradigmatic munosabatlarni tahlil qilish;

komparativ adyektiv iboralar hosil bo‘lishida metaforik ko‘chimlar rolini belgilash va ushbu turdagi iboralar derivatsiyasi jarayonida polisemiya hodisasining ta’sir doirasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv iboralar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini adyektiv iboralarning strukturaviy-semantik xususiyatlari, ularning paradigmatic tavsifi, har bir tilda alohida o‘zaro va tillararo

⁶ Бердимуратов Е., Даўлетов А. Тил билимине кириспе. – Нөкис., 1988. – 67 б.; Бекбергенев А. Қарақалпақ тилинде сөзлердің жасалығы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1979. – С. 27; Нажимов А. Қарақалпақ тилинде жуп хәм тәкирар сөзлер. – Нөкис, 1979. – 180 б.; Пирниязова А. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы хәм оның стилистикалық имканиятлары. – Нөкис: «Қарақалпақстан» баспасы, 2020. – 187 б.

⁷ Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985.; Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент: Фан, 1972. –148 с.; Айназарова Г. Симметричные двухкомпонентные фразеологизмы в каракалпакском языке: Автореф. Дисс... канд. филол. наук. – Нукус., 2000.–19 с.; Джумамуратов Т. Русско-каракалпакский фразеологический словарь для школьников. Нукус: Каракалпакстан, 1985. – 204 с.; Кдырбаева Г. К. " Man"- " адам" концептосферасы бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт...(PhD). – 2017.; Усенова Г.А. “MOTHER/АНА” Концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт...(PhD). – 2021.; Худайбергенев А.А. Маданиятлараро мулоқотда инсон характерини ифодоловчи фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт...(PhD). – 2022.

⁸ Кудьярова Ш.Т. Қарақалпақ хәм қазақ тиллериндеги сөзлердің лексика-семантикалық өзгешеликleri. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2008 – 90 б.

adyektiv iboralarning sinonimik, antonimik munosabatlari, mazkur iboralarda metaforik ko‘chish mexanizmlari va ularning taqqoslanayotgan tillardagi lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda sinxron-qiyosiy, struktur-tipologik, struktur-grammatik, leksik-semantik, konseptual tahlil, frazeologizmlarni modellashirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli lingvomadaniy jamoaga xos obrazlarning o‘ziga xosligini yorqin ifodalaydigan adyektiv frazeologik birliklarning turli tillar kesimida chog‘ishtirish orqali tillararo struktur-tipologik tasnifi yaratilib, ularning ingliz tilida *sifat+kabi+gerundial ifoda, sifat+kabi+egalik olmoshi/olmosh+ot*; qoraqalpoq tilida *sifat/sifatdosh+kabi+(sifat)+old ko‘makchi+ot* kabi shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlangan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv iboralarning konseptual asosi, frazeologik birliklar ko‘lamidagi sinonimik, antonimik, paradigmatic munosabatlari aniqlanib, ularning ham antonimik juftligini (*sózne sheshen – sózne olaq, ayında-jılında – qudaydıń qutlı kúni, bad name – a good name; In heart – out of heart*), ham antonimik-sinonimik bloklarni (*aqsha jumsap bilmegenniń dáwleti tayar – money is a good servant but a bad masters*) hosil qilishi kabi leksik-semantik xususiyatlari aniqlangan;

ingliz va qoraqalpoq tillarida KAFBlarning muayyan bir sotsiumdagi lisoniy shaxs tasavvuriga oid lingvomadaniy birliklarning semantik va pragmatik mazmunidagi konsept jihatdan o‘xshashlik va obrazli farqlanishlari diskursda voqelanishi bilan bog‘liqligi dalillangan;

komparativ adyektiv frazeologik birliklar hosil bo‘lishida metaforik ko‘chimning o‘rni, mazkur jarayonda yuzaga keladigan polisemiyaning roli hamda komparativ adyektiv frazeologik birliklarning konseptual asosini yaratuvchi etalon, obraz kabi lisoniy belgilari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillarida til iboralari sifatida adyektiv iboralarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillarida turg‘un birikmalar sifatida adyektiv iboralarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning matnda faollashuvini ta’minlovchi omillar ishlab chiqilgan;

olaning ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lisoniy manzarasi tasvirida adyektiv iboralarning ishtiroki asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning zamonaviy nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat’iyligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar tatbig‘ining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlil asosida olingan natijalardan foydalanish

til frazeologiya tizimining alohida qatlamlarini, shu jumladan, tillararo chog'ishtirma aspektida ham har tomonlama tadqiq qilishni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materialidan ingliz va qoraqalpoq tillari leksikologiyasini o'qitish amaliyotida, shuningdek, qiyosiy-tipologiya, frazeologiya bo'yicha magistratura bosqichida maxsus kurslarni tashkil qilish hamda ikki tilli frazeologik lug'atlar, turli qo'llanmalarni yaratishda, tadqiqot yo'nalishi doirasida dissertatsiyalar va monografiyalar yozishda foydalanish mumkinligida aks etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va qoraqalpoq tillarida komparativ frazeologizmlarning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlili asosida:

turli lingvomadaniy jamoaga xos obrazlarning o'ziga xosligini yorqin ifodalaydigan adyektiv frazeologik birliklarning turli tillar kesimida chog'ishtirish orqali tillararo struktur-tipologik tasnifi yaratilib, ularning ingliz tilida *sifat+kabi+gerundial ifoda, sifat+kabi+egalik olmoshi/olmosh+ot*; qoraqalpoq tilida *sifat/sifatdosh+kabi+(sifat)+old ko'makchi+ot* kabi shakllarda namoyon bo'lishi haqidagi natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-FI-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" loyihasi doirasida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 5-iyundagi 244/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim jarayoniga joriy etilgan yangi ko'rinishdagi o'quv qo'llanmalarni tuzishda ishda ishlab chiqilgan frazeologik birliklarning tasnifi joriy qilingan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv iboralarning konseptual asosi, frazeologik birliklar ko'lamidagi sinonimik, antonimik, paradigmatic munosabatlari aniqlanib, ularning ham antonimik juftligini (*sözge sheshen – sözge olaq, ayında-jılında – qudaydıń qutlı kúni, bad name – a good name; In heart – out of heart*), ham antonimik-sinonimik bloklarni (*aqsha jumsap bilmegenniń dáwleti tayar – money is a good servant but a bad masters*) hosil qilishi kabi leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish jarayonida erishilgan xulosalardan Yevropa ittifoqining Erasmus+dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" xalqaro loyihasi doirasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 18-iyuldagi 2042/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompyuter tilshunosligi bo'yicha o'quv qo'llanmalar mazmuni olingan natijalar hisobidan boyitilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillarida KAFBlarning muayyan bir sotsiumdagi lisoniy shaxs tasavvuriga oid lingvomadaniy birliklarning semantik va pragmatik mazmunidagi konsept jihatdan o'xshashlik va obrazli farqlanishlari diskursda voqelanishi bilan bog'liqligi to'g'risidagi xulosalaridan "Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati" muzeyi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpoq Respublikasi tarixi va madaniyati muzeyining 2023-yil 22-iyundagi 224-son ma'lumotnomasi). Natijada, muzeyning yangi binosiga qo'yilgan eksponatlar tavsifi ingliz tilida qaytadan yaratilgan, shuningdek, o'tkaziladigan

ekskursiyalarning matnlari tahlil qilinib, ularning ingliz va qoraqalpoq tillaridagi variantlari yangi ma'lumotlar hisobidan boyitilgan.

komparativ adyektiv frazeologik birliklar hosil bo'lishida metaforik ko'chimning o'rni, mazkur jarayonda yuzaga keladigan polisemiyaning roli hamda komparativ adyektiv frazeologik birliklarning konseptual asosini yaratuvchi etalon, obraz kabi lisoniy belgilari bilan bog'liq xulosalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining hududiy Qoraqalpog'iston teleradiokanalining "Musiqiy dam olish dasturlari" bosh muharririyati tomonidan tayyorlanadigan "Bilimlendiriwde reforma", "Qayirli tań" eshittirishlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-oktabrdagi 05-22/480-son ma'lumotnomasi). Natijada, KAFBlarning konseptual asosi haqidagi ma'lumotlar mazkur teleko'rsatuv va radioeshittirishlarning ssenariylarini tayyorlashda iqtisodiyot, siyosat, sotsiologiya, psixologiya va boshqa sohalarga oid marketing strategiyalarni qo'llashdagi ba'zi lingvistik muammolar bilan bog'liq vazifalarning bajarilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 2 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 7 ta va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 3 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan, ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Turli tizimli tillarda komparativ iboralar shakllanishining lingvokontseptual aspekti"** deb nomlangan birinchi bobida frazeologiya sohasi tadqiqi bilan bog'liq muammolar muhokama qilinib, komparativ tuzilmalarning shakllanishida yuzaga keladigan hodisalarning konseptual asosi yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslikning hozirgi bosqichida frazeologiya jadal rivojlanishi sohada mavjud bo'lgan turli-tuman muammolarni hal qilish masalasi qo'yilmoqda. Tilshunoslarning vazifasi, bir tomondan, tillarning o'ziga xos

xususiyatlarni e'tiborga olib, ularning frazeologik materiallarini tavsiflashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli tillarning frazeologik tizimlarini chog'ishtirma o'rganish ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ikki yoki undan ortiq tilning frazeologik materialini qiyosiy o'rganish haqida gap borar ekan, bu soha boshqa nazariy tadqiqotlardan ancha ortda qolayotgani oydinlashadi. Aynan shu sababli, frazeologik tizimlarni chog'ishtirma aspektda tadqiq qilish, frazeologiyaning umumiy nazariyasini ishlab chiqish uchun hamda tadqiq etilayotgan tillarning umumiy va farqli xususiyatlarini o'rganish uchun ham ahamiyatlidir.⁹

Adyektiv o'xshatishlar tilda o'xshatishlarning alohida olingan birinchi komponentlariga nisbatan qo'shimcha axborotni ifodalash zarurati o'laroq yuzaga keladi. O'xshatishlar odatda salbiy yoki ijobiy bo'yoqdor, yorqin baholash ma'nosiga ega komparativ ibora belgili so'zlarning morfologik shakli sifatida, avvalambor, mazmun ifodasi va daraja kategoriyasini ifodalash vositalarini, xususan, belgi intensivligini tushunish bilan bog'liq. Kuchaytirish ma'noli komparativ iboralar va frazeologik intensifikatorlar ko'pgina tadqiqotlar obyekti bo'lib kelgan.

Iboralar tasnifida N.N.Amosova quyidagi asosiy ikki guruhni ajratadi:¹⁰

1. Idiomalar doimiy kontekst birligi bo'lib, ularda ishora minimumi va semantik ifodalangan element tenglikni tashkil etib, ikkalasi so'z birikmasining umumiy leksik tarkibi bilan ifodalanadi va yaxlit ma'no kasb etadi.

2. Frazemalar doimiy kontekst birligi bo'lib, ularda semantik ifodalanayotgan so'z ma'nosi frazeologik jihatdan bog'langan bo'ladi.

Hozirgi qoraqalpoq tilida iboralarni quyidagicha ajratish qabul qilingan: 1) frazeologiyaliq ótlesiwler (фразеологические сращения); 2) frazeologiyaliq birlikler (фразеологияческие единицы); 3) frazeologiyaliq dizbekler (фразеологические сочетания).¹¹

Adyektiv frazeologizmlar, iboralarning salmoqli qismini tashkil etib, tillararo chog'ishtirma tahlilga keng yo'l ochib beradi, zero, bu turdagi iboralar u yoki bu obyekt haqidagi obrazli tasavvur asosida hosil bo'lib, har bir lingvomadaniy jamoaga xos baho obrazlari tizimi orqali tilning o'ziga xosligini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi.

Frazeologik tuzilmalarning qiyosiy-tipologik usullar tatbiqidagi tahlili tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Biroq, turli lingvomadaniyatlarga oid turg'un iboralarning umumiy xususiyatlari va idioetnik ko'rsatkichlari etarli darajada aniqlanmagan. Bu, ayniqsa, qarindosh bo'lmagan tillar (jumladan, ingliz va qoraqalpoq tillari) frazeologik zahirasi qiyosida yaqqol namoyon bo'ladi.

Frazeologik tizimlarni chog'ishtirma aspektda tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda ushbu tizimga kiruvchi iboralarning bajaradigan vazifasiga ahamiyat berish talab qilinadi. Zero, ushbu xususiyat chog'ishtirma tahlilda etakchi rolni o'taydi. Bundan tashqari, mazkur yo'nalishdagi tahlilda tilning frazeologik tarkibidagi lisoniy obrazlilikni hosil qilish xususiyatiga ham e'tibor qaratish lozim.

⁹ Арсентьева Е. Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. – Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. – 125 с.

¹⁰ Амосова, Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – 203 с.

¹¹ Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1985.

Frazeologizmlar obrazli tarkibini turli tillar kesimida qiyosan o'rganish, ularning tillararo struktur-tipologik tasnifini yaratishga imkon tug'diradi. Bu ayniqsa, tipologik jihatdan yaqin turadigan obrazlarning turli tillarda paydo bo'lish sabablarini aniqlash hamda ularning ma'noviy shakllanish usullarini ajratishga asos bo'ladi.

Ingliz va qoraqalpoq tillari chog'ishtirma frazeologiyasining nazariy asoslari etarli darajada shakllanib ulgurmaganligi ma'lum. Ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchi va talabalarga mo'ljallangan frazeologiya sohasiga oid o'quv adabiyotlarni yaratish masalasi tobora dolzarblashmoqda. Shuningdek, o'quv jarayoniga tatbiq qilish uchun zarur bo'lgan frazeologik lug'atlarga ehtiyoj katta va bu turdagi lug'atlarning yaratilishi zarur bo'lgan frazeologik bilimni egallashni jadallashtiradi.

Tilshunoslar chog'ishtirma tahlilning bir qator usullarini tavsiya qilishgan: frazeologizmlarni struktur-semantik modellash; semantik-diaxron qiyoslash; semantik-sintaktik turlarga ajratish; muqobilliklarni qiyoslash; leksik-grafik nuqtai nazardan chog'ishtirish, frazeologik tizimlarni funktsional-kommunikativ jihatlarini qiyosan o'rganish kabilar.¹²

Frazeologizmlarning semantik jihatdan o'xshash va farqli tomonlari Sh. Rahmatullaev, E. Umarov, B. Yo'ldoshev, M. Sodiqova, M. Umarxo'jaev, A. Nosirov, T. Shirinova kabilarning ishlarida o'rganilgan. Shunga qaramasdan, frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari va tillararo muqobillik belgilari tadqiqiga oid tadqiqotlar kamchilikni tashkil qiladi. Hozirgi paytda ko'pchilik tillar uchun umumiy bo'lgan lisoniy qonuniyatlar tadqiqotchilar diqqatini jalb qilmoqda. Shu xildagi qonuniyatlar albatta, frazeologiya sohasida ham mavjud. Darhaqiqat, frazeologiya til tizimining ajralmas qismi sifatida barcha tillar uchun universal hodisadir.

Biz ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologizmlarini chog'ishtirma tadqiqida A.D. Rayxshteyn taklif qilgan tamoyillarga asoslanamiz:

1. Qiyosiy tahlildan oldin har bir tilning frazeologik tizimi mustaqil ravishda o'rganilishi lozim.

2. Alohida tilning frazeologik tavsifi qiyosiy frazeologiya ehtiyojiga mos kelishi kerak. Boshqacha aytganda, turli tillar yagona nazariya va umumiylik metodlar tatbiqida tavsiflangani ma'qul.

3. Frazeologik tizimlar qiyosida iboralarning umumiy belgilari etakchi o'ringa qo'yilishi shart va faqat shundan so'ng frazeologik farqlar aniqlanadi.

4. Tillararo frazeologik muqobillar oldindan belgilangan ko'rsatkichlar doirasida o'rganilishi lozim.

5. Turli tillar frazeologiyasi qiyosiy tahlili semasiologik (lisoniy shakldan mazmunga) hamda onomasiologik (mazmundan uning ifodasiga) yo'nalishlar uyg'unligini taqozo etadi.¹³

Frazeologiya doirasida mavjud bo'lgan umumiylik va xususiylik holatlarini iboralarning kelib chiqish manbalariga asoslangan holda izohlash mumkin. Ushbu muammo bilan shug'ullangan olimlarning qaydicha, frazeologizmlarning asosiy qismi

¹² Кашеева А.В. Квантативные и качественные методы исследования в прикладной лингвистике // Современная лингвистика и литературоведения. - № 3, 2013. - С. 155-162.

¹³ Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. - М.: Высшая школа, 1980. -143 с.

milliy-madaniy asosga ega. Xuddi shu turdagi frazeologizmlar har qanday tilning o'ziga xos maqomini belgilaydi. Frazeologik tarkib og'zaki nutq, folklor, badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari doirasida kengayib, boyib boradi (Alefirenko 2005; Vasileva 2001; Cherdantseva 1988; Yo'ldoshev 2013).¹⁴

Frazeologik universalialar paydo bo'lishi nolisoniy omillar bilan izohlanadi. Yagona bir flora va fauna tizimida yashovchi turli xalqlar ijtimoiy va ma'naviy hayot shakllarida tafakkur qobiliyatida umumiyliklar seziladi. Ushbu holat, tabiiyki, lisoniy tizimlarda ham umumiyliklar paydo bo'lishiga sabab tug'diradi. Natijada, bu so'z turkumlari va boshqa grammatik kategoriyalar hamda frazeologizmlar shakllanishida aks topadi.

Iboralarning chog'ishtirma tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarning frazeologik zahirasini har tomonlama o'rganish bilan bir qatorda, til tizimi asosiy iboralarining qiymatiga taalluqli qator murakkab muammolar echimini topishga undaydi. Bunday muammolar guruhiga lug'aviy iboralar ma'nosi, ularning o'zaro birikishi va turli janrdagi diskurslarda faollashuvi kabilarni kiritish mumkin.

Tilning frazeologik tarkibi an'anaviyligi bilan ajralib turadi. Turg'unlik va miqdoriy cheklanganlik tarkibiga ega bo'lgan iboralar doimo til sohiblarining madaniyati, hayot tarzini aks ettiradi. Ularda ma'lum bir xalqning milliy psixologiyasi o'z o'rnini topadi. Shu bois, har qanday tilning frazeologik tarkibi aslida milliy xarakterga ega va uning bilan tanishish millatning tarixi, tafakkur tarzini chuqur anglashga imkon beradi. Zotan, iboralarda tarixiy hodisalar, xalqning ularga munosabati va boshqa aksiologik omillar namoyon bo'ladi.¹⁵

Adyektiv iboralarining tarkibiy turlarini konkret faktik materialdan kelib chiqib yoki tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab turli jihatdan tahlil qilish mumkin. Adyektiv iboralarni grammatik tuzilishi, leksik tarkibi va tarkibiy unsurlari orasidagi sintaktik aloqalarning tabiatiga ko'ra farqlash mumkin.

Struktur-komponent muvofiqliklar deganda bir so'z turkumiga mansub bo'lgan, ammo joylashuv tartibiga ko'ra farq qiladigan tarkibiy qismlarga ega bo'lgan komparativ iboralar tushuniladi, struktur-komponent nomuvofiqliklar deganda esa tuzilishi va tarkibiy qismlariga ko'ra farq qiladigan qiyosiy iboralar ko'zda tutiladi.

Struktur-komponent muvofiqliklar quyidagi adyektiv komparativ iboralar turlarini o'z ichiga oladi:

Birinchi struktur ko'rinish. Ushbu turga quyidagi tuzilishga ega komparativ adyektiv iboralar kiradi "sifat + day + ot" (as+adj+as+N.): ingl. *As busy as a bee* – qumirsqaday miynetkesh, *as yellow as guinea* – altmday sari (sari altmday), *as quick as lightning* – jildirimday juyrik, *as straight as a narrow* – miyiqtay duziw, *as blind as a bat* – tawiq kóz (soqir tawiqqa bári tarí, *as dry as a bone* – gewrektey quwraq (qamistay quwraq), *as hard as flint* – tastay qatti, *as clear as mud*, *as clear as a daylight* – attin qasqasmday aniq, *as wise as Solomon* – Kósemdey danishpan, kópti

¹⁴ Алефиренко Н.Ф., Золотых Л.Г. Проблемы фразеологического значения и смысла (в аспекте межуровневого взаимодействия языковых единиц). – Астрахань: Астраханский университет, 2004. – 296 с.; Васильева Е.А. Концептуальная оппозиция "индивид - группа" в языковой картине мира. Дисс. ... канд. филол.наук. – М.: 2001. – 164 с.; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ, 2013. – 297 б.

¹⁵ Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Фан, 2005. – 268 с.

kórgen babaday, as black as ink – *kómirdey qara* va h.k. Tadqiqot davomida ingliz tilida ushbu turdagi 135 adyektiv komparativ iboralar, qoraqalpoq tilida esa jami 122 shunday adyektiv komparativ iboralar aniqlangan.

Bir qarashda ushbu turdagi qoraqalpoqcha komparativ adyektiv iboralarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida iboralar tarkibidagi komponentlar joylashuv tartibi, shuningdek, **as ... as ...** ma'nosini ifodalaydigan **day / dey, tay / tey** qo'shimchalari ikkala komponentga emas, faqat otga qo'shilishini ko'rsatish mumkin. Qiyoslanayotgan tillarda ushbu tur eng sodda, eng keng tarqalgan komparativ adyektiv iboralar turi sifatida namoyon bo'ladi. Iboralarning bu turi jonli so'zlashuv nutqida tez-tez qo'llanilishi sababli struktur tarkibning soddaligi va qisqaligi bilan ajralib turadi. Ushbu subtipning shakllanishida har bir tilning grammatik me'yorlariga mos ravishda rioya qilinadi.

Qoraqalpoq tilida artiklning morfologik ekvivalenti mavjud emas, shuning uchun artikl o'rniga noaniq yoki ko'rsatish olmoshlari ishlatilishi mumkin yoki ular kontekst orqali anglashiladi. *Qumirsqaday miynetkesh, jıldırımday júyrik, mıyıqtay dúziw* misollarida ot komponentlar – *qumirsqa, jıldırım, mıyiq* u yoki bu turdagi predmetlar (hodisalar) sinfiga mansub. Bu o'rinda noaniqlik nazarda tutiladi. Demak, mehnatsevarlik *qumirsqa* (ingl. ant). toifasiga kiradigan barcha jonzotlarning xarakterli belgisi. Tabiatdagi eng tezkor hodisa bu *jıldırım* (ingl. lightning). To'g'rilik barcha turdagi *mıyiq* (russ. гвоздь, angl. a nail)larga xos belgili xususiyat.

Ikkinchi struktur ko'rinish. *Sifat+day+sifat+ot (as) adj.+as+adj+N*) struktur ko'rinishiga quyidagi komparativ adyektiv iboralar misol bo'la oladi: *as bright as a new penny (dollar, dime) – bulttan shıqqan ayday, jarq etip, as savage as a meat axe – jállattıń qılıshında qáhárli*. Bunday tuzilishli o'xshatishli iboralarda ham qoraqalpoq tilida adyektiv komparativ iboralar tarkibida komponentlar joylashuvida o'zgachalik ko'zga tashlanadi. Bunda, sifat o'rnini qaratqich kelishigidagi ot bilan *day / dey* qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari bilan birikkan ot so'zlar yordamida shakllanadi va *N. com.case+P.II.+N+Comp.Particle day+adj* shakliga to'g'ri keladi o'tkan zamon fe'li bilan tarjima qilanadi.

Uchinchi struktur ko'rinish. “*Sifat+ day + ot + ko'makchi / bog'lovchi + ot ((as) adj.+as+N+prep./conj.+N)* tuzilishga ega komparativ adyektiv iboralar. Bunday tuzilishli iboralarga quyidagilar misol bo'la oladi: ing. *as different as chalk from/and cheese, as artfull as a vagon load of monkeys, as plain as the nose on your face, as welcome as the flowers in May*. qq. *Aq penen qarasında anıq / aspan menen jerdey parqı bar, túlkidey jalatay, murnıń ushında turǵanday / tildiń ushında turǵanday, báhár gúllerindey jaynaǵan (xoshrey) / báhárde ashılǵan gúller yańlı*.

To'rtinchi struktur ko'rinish. Ushbu turga “*sifat+day+gap*” (*as adj.+as+sentence*) tuzilishga ega komparativ adyektiv iboralar kiradi. Ingliz tilida bu turdagi iboralar quyidagi xususiyatlarga ega: 1. ikkinchi komponent ko'pincha tasdiq gap bilan ifodalanishi mumkin, masalan: ingl. (*as*) *welcome as the day is long (~ as the day)* – *jıl on eki ay kórispegen ashıqlarday / diydar nesip bolǵan, kópten beri kórispegen yarlarday / bulttan shıqqan ayday*. Ammo, qoraqalpoq tilida gap o'rnini sifatdoshli oborot egallaydi.

A.V. Kunin ingliz tilida bunday adyektiv iboralarda ikki turdagi teng bogʻlanishni sanab oʻtgan, biriktiruvchi bogʻlanish va biriktiruvchi-ayiruvchi bogʻlanish.¹⁶

Biriktiruvchi aloqa. Bunday aloqa quyidagi turdagi idiomalarda kuzatiladi.

1) Juft sinonimik iboralar:

Free and easy – *emin-erkin* (erkin)

High and mighty – *kewli aspanda* (manman)

Yuqoridagi hol qoraqalpoq tilida koʻpincha ikkita sinonimik komponentni biriktiruvchi chiziqcha – defis (–) bilan ifodalanadi, masalan bu holat *aman* – *esen*, *saw-salamat* – *safe and sound*; *emin-erkin* – *free and easy*; *harip-talmas* – *sound and strong* kabi qoraqalpoq va ingliz iboralarida kuzatiladi.

2) Semantik yaqin maʼnoli iboralar:

Alive and kicking (soʻzlashuvda hazil maʼnoda) – *shaqqan hám sergek*, *saw-salamat* (sogʻ-salomat).

Up and going – *kókiregi yoshli*, *qarw gayratli*, *tinip tinshimas* (gʻayratli, tinib-tinchimas).

Qoraqalpoq tilida oddiy soʻzlashuvda «*shaban attay*», «*kewil xosh*» tipdagi adyektiv iboralar mavjud boʻlib, ular maʼnosiga koʻra «*alive and kicking*» iboralarga mos keladi, ammo tuzilishi va xarakteriga koʻra ular farqlanibgina qolmasdan, hattoki «*shaban attay*» iborasi komparativ adyektiv iboralarga kiradi.

Ularni qoraqalpoq tiliga tarjima qilishda mazkur muammo komparativ iboralarga muqobil boʻlgan variantlarni toʻgʻri tanlash bilan hal qilinishi mumkin. Qoraqalpoq tilida *as grave as a judge* idomasining muqobili sifatida *qabaġman qar jawġanday*, *qabaġi qars jabılınqıday*, *túnergen dumanday*, *dumanday túnerinki*, *záhárin kimgé shasharın bilmey*, *qáhárge mingendey*, *qáhárge mingendey*, *jawatuġın bulttay túnergen*, *jawatuġın bulttay túnerip* va boshqa komparativ iboralarni keltirish mumkin.

Qoraqalpoq tilida komparativ adyektiv iboralarning struktur tuzilishi rang-barangdir. Adyektiv iboralarning qoraqalpoq tilidagi strukturaviy tarkibi turlicha. as+Adj.+as+N. tuzilishga ega adyektiv komparativ iboralarning inglizcha strukturasi N.+day+Adj. yoki Adj.+N.+day strukturalari orqali ifodalanib, ularda iboralar komponentlari oʻrinlarining oʻzgarishi maʼlum darajada iboralar tuzilishi va mazmuni yaxlitligi zaiflashuviga taʼsir etmaydi. Bunday strukturalarga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: *as bold as a billiard boll* – *mayektey sıypaq aynaday taqır*; *as beautiful as an angel* – *húr qızınday sulrw*; *beautiful as princess* – *xan qızınday sulrw*; *as white as snow* – *qaġazday aq* (*aq qaġazday*), *qarday appaq*; *as bright as a day* – *súttey jariq*; (*as*) *soft as a butter* – *paxtaday jumsaq*; *as happy as a bird*, *as happy as a lark* – *qustay jeńil*.

Adyektiv iboralar ijodiy faoliyat bilan shugʻullanadigan yozuvchi va shoirlarning qimmatli uslubiy vositalari hisoblanadi, ular shunday iboralar vositasida oʻz asarlarida yorqin obrazlarni yaratishadi. Quyidagi misollarda bunga amin boʻlamiz: *Tas bawır xan esitse oshaġımızdıń kúlin kókke suwıradı* (T. Qayıpbergenov

¹⁶ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна, 2005.

Mamanbiy ápsanası) If Hard-hearted Khan is aware of it he will break down our family.

Mağan qarsı sóyleytuğın qanday dáwjürek adam eken! (Bózuğlan dástanı). Is his heart of oak to dare to say such a word against me!

Qoraqalpoq tilida ikki unsurli adyektiv iboralarining yorqin namunalaridan biri simmetrik ikki komponentli adyektiv iboralar bo‘lib, bu alohida guruh ilk bora G.A. Aynazarovanning nomzodlik dissertatsiyasida aniqlangan.¹⁷ Qoraqalpoq tilining frazeologik tizimida ushbu guruh iboralar o‘ziga xos struktur tuzilish, nutqiy faoliyatdagi funktsional-uslubiy vazifalar bilan xarakterlanadi. Struktur turlar orasida ikki komponentli simmetrik guruh maxsus o‘rganilgan emas. Ikkita simmetrik komponentdan tashkil topgan ushbu guruh iborolari olimaning izlanishlari tufayli maxsus guruhga ajratilgan. Bunday konstruksiyalar tarkibiga kiradigan komponentlar ikkita teng qismdan iborat bo‘lib, ular parallel simmetrik butunlikning ikkita qismidir. Komponentlar orasida fonetik, grammatik va semantik plandagi teng ma‘nolik va muqobillik ko‘zga tashlanadi, bu esa ularda simmetriya borligini ko‘rsatadi. Quyida ularning simmetrikligi umumiy belgisini ifodalovchi misollarni keltiramiz: *kóylegi kók, tamağı toq* – *well off*; *sırtı pútin, ishi tútin* – (*notinch, bezovta*) *restless*; *etegi elpi, jeñi jelpi* – (*kambag‘al*) *poor beggar, poor as a church mouse*.

Qoraqalpoq tilida adyektiv iboralarining ikkinchi tipiga uchta so‘z birlashib, sifat ma‘nosiga teng bitta so‘z sifatida idrok etiladigan iboralar kiradi, ularga quyidagi adyektiv iboralarni misol qilish mumkin: *Tayağın iyt ğayzağan* – *devil-may-care, light-hearted*; *shashı tobigına túsken* – *long-haired*; *awızı qulağına jetken* – *Cheshire cat*; *pıshıq murnı batpaytuğın* – *thick dence*; *ashrıwı murnınń ushında* – *hot-headed* va h.k.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va qoraqalpoq tillari komparativ iboralarining leksik-semantik tavsifi”** deb nomlangan. Mazkur bobda komparativ iboralarining leksik–semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularning uslubiy xususiyatlari, sinonimik va polisemantik munosabatlari tavsiflangan, shuningdek, frazeologizmlarning milliy-madaniy belgilari ajratilgan. Taqqoslanayotgan tillarning har biridagi iboralar turli semantik ko‘lami bilan xarakterlanadi. Ularning bir qismigina alohida so‘zlar bilan identifikatsiya qilinadi, aksariyat qismining ma‘nosini esa so‘z birikmasi, yoyiq tavsiflar orqali berish mumkin. Har bir adyektiv ibora minimal ma‘noviy komponentlar ma‘no iboralar – semalar, integral va differentsial semalar to‘plami bilan xarakterlanadi. Agar integral semalar umumiy bo‘lib, iboralarni muayyan frazeosemantik guruh va guruhchalarga birlashtirish uchun asos bo‘la olsa, differentsial semalar qo‘shimcha semantik belgilar bo‘lib, ifodalanayotgan hodisaning ikkilamchi xususiyati va belgilarini ifodalaydi.

Frazeologik ma‘no – o‘ta murakkab hodisa bo‘lib, tabiiyki, uning tarkibiga kiradigan unsurlarning mexanik yig‘indisi sifatida talqin etib bo‘lmaydi. Iboraning semantik tuzilishini mikrotizim sifatida namoyon etish mumkin, bu mikrotizimning unsurlari chambarchas aloqador, iboralarining semantik o‘ziga xosligi semalar birikishi o‘ziga xosligida ko‘rinadi.

¹⁷ Айназарова Г. Симметричные двухкомпонентные фразеологизмы в каракалпакском языке: Автореф. Дисс... канд. филол. наук: - Нукус, 2000. –19 с.

Iboralarning signifikativ-denotativ ma'nosini tashkil etuvchi integral va differentsial semalarni ko'rsatishda iboralarning konnotativ ma'nolarini hosil qiluvchi semalarga ham ahamiyat qaratish lozim, boshqacha qilib aytganda, til va tafakkurda ratsionallik va emotsionallikning yaxlitligi bevosita semaning signifikativ-denotativ ma'no komponentlarida ifodalanadi.

Frazeologik ma'nodagi konnotativ-denotativ aspektning ahamiyati ko'p jihatdan obrazli tafakkur asosida qurilgan iboralar semantik tuzilishining ikki tarkibligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi tasnifga kiruvchi birinchi toifadagi iboralarga aksariyat hollarda yozma nutqda, poetik, publitsistik, ilmiy, rasmiy-idoraviy uslublarida qo'llanadigan iboralar kiradi, masalan:

The world, the flesh and the devil – awırdıñ astı menen jeñildiñ ústi menen jasawshı (ytuğın); to serve God and Mammon – Qudayğa qulshılıq etiwshi..., Qudayğa shükirshilik etip jasaytuğın; with a stone's throw of ... – qol sozım jerde umumadabiy ibora bo'lsa, right under your nose – murnıñ ushında turgan so'zlashuv uslubida qo'llanadigan iboralar qatoriga kiradi.

So'zlashuv uslubiga kiradigan adyektiv iboralar qatoriga og'zaki nutqda qo'llanadigan adyektiv iboralar kiritiladi. Bunday iboralarga lug'atlarda maxsus izoxlar bilan beriladi, masalan: *as hell as the devil – jin urğanday, quday urğanday; alive and kicking – deni saw, waqtı xosh.* «So'zlashuv iboralari ko'pincha umumadabiy qatlamga kirib boradi».¹⁸

Neytral yoki uslublararo iboralar barcha uslublarda teng qo'llanadi: *high and mighty – murnı aspanda, abıroy-mártebeli; up and going – kúsh gayratlı; as pretty as a picture – ayday shıraylı; as good as gold – anasınday miyriman, atasınday miyriman, atasınday qayırqom.*

Funksionallik nuqtai nazaridan qoraqalpoq tilidagi iboralar ham uch guruhga bo'linadi. E. Berdimuratov ularni quyidagicha tasniflaydi:¹⁹

1. uslublararo va neytral iboralar;
2. so'zlashuv iboralari;
3. kitobiy iboralar.

Olimning ta'kidlashicha, uslublararo yoki neytral iboralar qoraqalpoq tili frazeologik fondining asosiy qismini tashkil etadi. Uning fikricha, uslublararo iboralarga ham og'zaki, ham yozma nutqqa xos, uslubiy jihatdan neytral iboralar kiradi, misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: *qırın qaraw, ala moynaq, kóz benen qastrıń arasında, shu jumladan adyektiv iboralar iyne menen qudıq qazğanday, kózge túskendey, kózi tanıytuğın; istiń kózin biletuğın; qoyday juwas, qoy awzınan shóp almaytuğın; til qaytarmaytuğın, til algısh, jeñil ayaq* va h.k. ingl: *hard-working, like looking for a needle in a haystack; as large as life, as big as life; a man of parts; (as) innocent as a (new-born) babe; (as) good as gold* (bolalarga nisbatan).

Uslubiy jihatdan quyidagi iboralar so'zlashuv uslubiga kiradi: *isler bes – everything is fixed (OK); beti bılsh etpeytuğın, awızın jıymaytuğın, beti joq – as loos as beer-drunker's bowels; mañlayğa pitken – at one's disposal.*

¹⁸ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. – 488 с.

¹⁹ Бердимуратов Е. Ҳазирги қарақалпақ тили лексикологиясы. – Нөкис: Билим, 1994. – 263 б.

So'nggi vaqtlarda frazeologik o'xshatishlarni kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya doirasida o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, jumladan, qiyosiy konstruktsiyalarni yaratish va o'zlashtirish mexanizmlari (T.S. Zevaxina, N.V. Yarovaya), tilda barqaror majoziy-assotsiativ aloqalarni mustahkamlash sabablari va usullari (V.N. Teliya, O.I. Glazunova), turg'un so'z birikmalarida aks ettirilgan obraz-etalonlar va qarshi aloqalarning milliy o'ziga xosligi (T.V. Shmeleva, V.N. Teliya, V.A. Maslova) tadqiq qilingan.

Komparativ frazeologiyani milliy o'ziga xosligi:

- 1) etalonlarning leksik-tematik tarkibi;
- 2) har bir tildagi barqaror o'xshatishlar majmuining tematik tuzilishi;
- 3) milliy markerlangan leksikaning mavjudligi singari uch omil bilan bog'liq.

Iboralarning bunday tasnifi tahlil qilinayotgan til leksika sathining ayrim milliy-o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Turli tizimga ega tillardagi ayrim so'zlar, so'z birikmalari, jumladan, iboralar kesishish nuqtasiga ega bo'lishi, to'liq yoki qisman mos kelishi mumkin, masalan: *Quick on the trigger* – qizba, qan qizba = *g'udi buzar* (qiziqqon, tez munosabat bildiradi); *Slow on the trigger* – uyan = *tirp etpes* = *jay basar* (sekin reaksiya qiladigan). Bunday o'xshashlikning sababi nafaqat chet tilidan so'z o'zlashtirish, bir tildan boshqa tilga kalkalashda, balki ko'plab lisoniy hodisalarning umumbashariyligida hamda ularning turli xalqlar ijtimoiy lisoniy ongida bir xil aks etishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, diaxronik planda "oddiylik" tushunchasini ifodalovchi «common/ápiwayi» komponentli ibora tahlilida bu holat quyidagicha aks etgan:

Common or garden – *jay hám ápiwayi, mayda shúyde, jénil jelpi, shaqır-shuqır* (oddiy, eng odatdagi, shablon, siyqasi chiqqan) = *bir-bab, aspaytuǵm –taspaytuǵm, azar-bezersiz, aq kewil*.

Iboralarning tematik tasnifini chog'ishtirma o'rganish ko'rib chiqilayotgan tillarda ham universal, ham differentsial hodisalarni aniqlash imkonini berdi. Adyektiv iboralar ingliz va qoraqalpoq tillarining olam lisoniy manzarasini shakllantirishda faol ishtirok etib, ular asosida ingliz va qoraqalpoq tillari olam manzarasining parchalarini qayta qurish imkonini berdi.

"Insonning qiyofasi" tushunchasini ta'riflash "inson tabiati" tushunchasini ta'riflashga qaraganda osonroq, zero lug'atlarda keltirilgan deyarli bir xil izohda "qiyofa" "tashqi ko'rinish" bilan tenglashtirilgan. Iboralarning ushbu guruhiga munosib iboralar juda kam, ingliz tilida ular 82 ta, qoraqalpoq tilida esa 46 taga teng.

Umuman, "tashqi ko'rinish" ma'nosini ifodalovchi frazeologizmlar eng katta guruhni tashkil etadi: *be not (nothing) much to look at; the outer man, a glamour girl; (as) fair as a lily (as a rose); eye appeal; toń moyın, málle asqabaqtay, túri/túsi suwıq; sırtqı pishimi; betke tutar, kúle shıray; ay menen jarısqan; ay júzli*.

Yoshni ifodalovchi adyektiv iboralarning tahlili xalqning ko'p yillik ilmi va tajribasi, dunyoning milliy manzarasi xususiyatlari va madaniyatning o'ziga xosligi ushbu tematik guruhda aks etadi, degan xulosaga kelishga imkon berdi, chunki yosh tushunchasi til birliklarida, nutq aktlarida va turli matnlarda mujassamlashgan. Shu jumladan, qiyosiy jihatdan, shuningdek, strukturada universal va variativ elementlar ajratilishi aniqlandi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi iboralar asosan insonning boshqa odamlar va atrofdagi voqeliklarga nisbatan ijtimoiy faoliyatini ifodalaydi, odamlar o'rtasidagi mavjud qarindoshlik, do'stlik, ma'naviy aloqa, adovat, tanishuv, hissiy munosabatlarni hamda turli voqeliklarga munosabatini tavsiflaydi. Ushbu tematik guruhga kiritilgan iboralar odamlar, jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni, shuningdek, bitta odamning boshqa odamga hissiy va oqilona munosabatlarini tavsiflaydi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlar: (as) welcome as the day is long (~ as the day) – *jil on eki ay kórispegen ashıqlarday / diydar nesip bolğan, kópten beri kórispegen yarlarday / bulttan shıqqan ayday*; *Quick on the trigger – ayğa shabar, qızba, qan qızba = gúdi buzar* (qiziqqon, tezkor); *Slow on the trigger – uyan = tırp etpes = jay basar* (sekin munosabat bildiradigan); *Wild and woolly– jabayı, qopal, tárbiya kórmegen, ákeden tırırw shesheden jırırw kórmegen* (madaniyatsiz, qo'pol); *Safe and sound– aman-esen, saw-salamat, aldırmay-juldırmay, den-saw* (sog'-salomat, o'lmay-netmay).

Tahlil asosida ushbu tematik guruhni shaxslararo munosabatlar, hissiy, oqilona va g'ayriinsoniy munosabatlar kabi kichik guruhlariga tasniflash mumkin. Ta'kidlash lozimki, g'ayriinsoniy munosabatlar kichik guruhida adyektiv iboralar salbiy fe'l-atvorni ifodalaydi.

Insonning turli vaziyatdagi ahvoli yoki atrof-muhit holati: *as bold as a billiard boll – aynaday taqır; as bright as a day – súttey jarıq; (as) soft as a butter – paxtaday jumsaq; as happy as a bird, as happy as a lark – qustay jeńil; as hard as a brick – tastay qattı; as hard as a nut – miytindey qattı*; Ingliz tilida: 1) *cold feet*; 2) *white liver*; 3) *get the wind up*; 4) *get (have) cold feet*; 5) *put one's tall between one's legs*; 6) *fly (mount, show) the white feather*; Qoraqalpoq tilida: 1) *ala tayaq*; 2) *awız ashıq*; 3) *ğarbızday shırtıldaw*; 4) *suw juqpas*; 5) *ór minez*; 6) *qoyan júrek*.

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi o'rganilayotgan iboralar semantikasining sezilarli o'xshashligi haqida to'xtalish mumkin. Milliy o'ziga xoslik xususiyatlariga quyidagi dalillarni kiritish mumkin: ikkala tilda ayrim frazeologik-semantik guruhlar bo'yicha iboralar bir xil taqsimlanmaganligi; o'zida faqat bitta tilda iboralarni qamrab oluvchi guruh mavjudligi; bitta frazeologik-semantik guruhga kiruvchi iboralar konnotatsiyasining farqlanishi.

Ingliz tilida ham, qoraqalpoq tilida ham adyektiv qiyoslashning birinchi komponenti odatda o'z, asosiy ma'nosida qo'llanadi. Ikkinchi komponent ko'pincha kuchaytiruvchi funktsiyaga ega, chunki birinchi komponent bilan ifodalangan belgi darajasini ko'rsatadi. Birinchi komponent o'xshatish asosi deb ataladi, ikkinchisi esa – o'xshatish obyekti. Taqqoslash subyekti – matndagi o'zgaruvchan element.²⁰ Masalan: *as fierce as a tiger – jolbarıstay jawız, as fat as a pig – shoshqaday semiz, (as) bald as a billiard ball – máyektey sıypaq*.

So'z birikmasi tuzilishiga ega komparativ iboralarning yana bir turi fe'lli iboralar bilan ifodalanadi. Fe'l ushbu frazeologizmlarning asosiy tarkibi hisoblanadi.

²⁰ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа. – Дубна: Феникс, 1996. – С. 381.

Ushbu model harakat va uning intensivlik darajasini ko'rsatuvchi sifat xususiyatini nomlab, aniqlovchi-hol munosabatni ifodalaydi: *bleed like a pig* – kóp qan ketiw, *swim like a stone* – baltaday júziw (toshday suzmoq), *fit like a glove* – quyıp qoyganday, *run like a hare* – arqasına qaramay qashıw, *swear like a trooper* – urısıwǵa jarasa, *agree like cats and dogs* – iyt-pıshıq bolıp jasaw, *sell like hot cakes* – talasıw, *drop smb (smth) like a hot potato* – tez qutılsw.

Barcha tahlil qilingan iboralar 3 guruhga bo'lingan:²¹

1. Turli tillardagi mazmun va obrazli tuzilishiga ko'ra mos keluvchi muqobillar, qoraqalpoq tilidagi to'liq muqobili mavjud inglizcha iboralarni ko'rib chiqamiz: *Cheap and musty* – arzannıń sorpası tatımas; *walls have ears* – tamnıń (diywaldnıń) da qulaǵ bar;

2. Mazmuniga ko'ra qisman mos keluvchi, lekin turli shakldagi muqobillar. Bunday iboralarga quyidagilar kiradi: *one's bitten twice shy* – awzı kúygen úrlep ishedı; *Guests at scars that never felt a wound* – bası awırmaǵannıń quday menen isi joq; *neither hey nor grass* – ya arı ya beri emes (na baliq na go'sht);

3. Ekvivalentsiz iboralar madaniyatlararo muloqotda katta qiziqish uyg'otadi. Inglizcha iboralar *Right to privacy* – (mulk huquqi) jekemenshik huqıq. Maqol *My house is my castle* – óz úyim, ólim tósegim. Ushbu iboralar inglizlarda (amerikaliklar) *personal space, privacy of the individual* – (shaxsiy hudud) óz iyeligi, tushunchalari qo'llanilishini tasdiqlaydi. Inglizlar tarbiyasida inson shaxsiga hurmat an'anasi o'ta muhim, shaxsiy chegaradan o'tishmaydi, ya'ni takallufsizlikka yo'l qo'yilmaydi. Oila, uy ular uchun qal'a, begonalarining kirishi ta'qiqlanadi. O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, qoraqalpoqlar mehmondo'stligi bilan ajralib turadi, ularning eshigi chaqirilgan, chaqirilmagan mehmonlar, qarindoshlar va begonalar uchun ham doim ochiq, shuning uchun qoraqalpoq xalqida shunday tushuncha mavjud (frazologizm) *Quday qonaq* (mehmon atoyi xudo) – The guest sent by God, ya'ni har qanday sharoitga qaramay, mehmondo'stlik ko'rsatiladi.

Qoraqalpoq tilining muqobilsiz adyektiv iboralari quyidagi ifodalar bilan boyiydi 1) *Jantaqlı jerdiń sonasınday* (odamga yoqmaydigan, ruscha "как в осинные гнезда"); 2) *Segiz qırlı sazandı toǵız qırlı jigit aladı* (faqat uddaburon baliqchi katta sazanni ushlaydi); 3) *párwayı pánseri* (parvoyi falak).

Ingliz tilida qoraqalpoq tiliga nisbatan quyidagi adyektiv iboralar muqobilsiz hisoblanadi *enough to make a cat speak* – xayron qolarli (qoraqalp. *pıshıqqa da ziban endirerlik*); *grin like a Cheshire cat* – sababsiz kuladigan odam (awzı qulaǵında).

Ingliz va qoraqalpoq tillari iboralari tahlili natijasida ikki tilning tarkibiy munosabatlarida o'ziga xos jihatlar mavjudligi aniqlandi. Ingliz tilida sifatlar 150 ni tashkil qiladi. Qoraqalpoq tilida sifatlar 142 songa ega. Har bir til o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, qoraqalpoq tilida yuklama va bog'lovchilar gap boshida qo'llanilmaydi, ingliz tilida fe'l gap boshida, qoraqalpoq tilida esa ot keladi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv tarkibiy qismlaridan iborat iboralar har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

²¹ Рзаева Р. Лингво-социокультурные аспекты преподавания английского языка // «Наука и общество» № 1-2. 2007. – Нукус. – С. 96.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz va qoraqalpoq tillarining komparativ iboralarida semantik siljish”** deb nomlangan. Ushbu bobda komparativ iboralar tarkibida kechadigan ma’noviy siljishlar muammosi o’rganilib, bunda alohida e’tibor metaforik ko’chimlarga qaratiladi. Ma’noning metaforik siljishi zaminida hamisha qandaydir o’xshatish yotadi. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi qiyosiy iboralarining semantik tahlili taqqoslash predmeti va uning obyekti o’rtasida o’xshashlik mavjudligini ko’rsatadi. Bu adverbial komparativ iboralarga ham xos:

1) predmetlar, narsalar bilan o’xshashlik: *as safe as a church* – tosh devorga suyanganday, *as still as the grave* – qabristondagiday tinch, sassiz;

2) hayvonlar, hasharotlar bilan o’xshashlik: *as fit as a flea* – «burga kabi sakraydi», *sog’-salomat, (do) like a bird* – bajonidil, hech ikkilanmasdan, hech qanday qarshiliksiz, oson, qiyinchiliksiz;

3) boshqa odamlar, adabiy yoki mifologik qahramonlar yoki ularning xususiyatlariga o’xshashlik: *like a father* – otalarcha, obro’li, qat’iy, lekin mehribon, *like a Trojan* – jasorat bilan, jasorat bilan, qahramonona;

4) tabiat obyektlar va tabiat hodisalari bilan o’xshashlik: *as firm as a rock* – tosh kabi qattiq, *as night follows day* – muqarrar, qochib qutulib bo’lmas.

Til rivojlanishining har qanday davrida, til egalari ongidagi etno-madaniy ongga xos bo’lgan qolipni tashkil etuvchi atrofda voqelik hodisalari haqidagi bilimlarning mavjudligi kerakli belgilarni izlashning to’g’ri yo’nalishini tanlashga yordam beradi. Turli xalqlarning lingvistik ongida assotsiatsiyalar bir-biriga to’g’ri kelsa, metafora va o’xshatishlar ham bir-biriga to’g’ri kelishi mumkin, qiyoslang: *as bald as brass* – *beti qalín*, *as clear as a bell* – *soqirga tayaq uslatqanday*. Bu holat esa frazeologik ekvivalentlarni shakllantirish imkoniyatini ochadi. Bu holatda, ingliz va qoraqalpoq tillari egalari ongida etalonlar – konnotatsiya tashuvchilari, ya’ni muayyan obyektlarning barqaror belgi xususiyatlari (funktsional, parametrik, psixologik va boshqalar), tushuncha tashuvchi muqobilalar tasvirida mustahkamlangan muayyan predikativ ma’nolar o’zaro mos keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, har qanday metaforik iboraning ma’nosi (shu jumladan frazeologik) avval boshdan motivlashgan: u muayyan lingvomadaniyat egalariga ma’lum metaforizatorning xususiyatlari bilan bog’liq degan xulosaga kelish mumkin.

S.G. Karimova ingliz va rus tillari materiallari asosida metaforik qayta anglangan adyektiv iboralarining tarkibiy va semantik xususiyatlarini, metaforik ko’chish mexanizmlarini, metaforizatsiyada iboralar komponentlarining roli va metaforik xarakterdagi adyektiv iboralarining okkazional variantlarini shakllantirish imkoniyatlarini o’rganadi.²²

Adyektiv iboralar asosidagi obrazlar ingliz va qoraqalpoq tillarida real va noreal olam obyektlariga asoslangan.

Chog’ishtirma o’rganish nuqtai nazaridan adyektiv iboralarining ko’p ma’noliligi bilan bog’liq masalalar hali ham tilshunoslarning diqqat markazida bo’lib qolmoqda.

²² Каримова С.Г. Адъективные фразеологические единицы метафорического характера в английском и русском языках: Дис...., канд. филол. наук. 10.02.20. – Казань, 2007. – 169 с.

An'anaviy tilshunoslikda komparativ iboralar odatda monosemantik, ya'ni bir ma'noga ega til belgilari hisoblanadi.²³ Shu bilan birga, ikkita frazeosemantik varianti bor barqaror o'xshatishlarning mavjudligi ehtimoli qayd etilgan.

Sh.Rahmatullaev faktik materiallarni tahlil qilish asosida polisemiya alohida so'zlarga xos bo'lgan darajada iboralarga ham xos degan xulosaga keladi (18%), ko'p ma'noli iboralar ikkitadan ettitagacha ma'noga ega bo'lishi mumkin, ularning 80% ikkita ma'noga ega.²⁴ Qoraqalpoq tilida iboralar polisemiyasi masalasi deyarli o'rganilmagan, shu o'rinda qoraqalpoqcha-ruscha lug'at pozitsiyasi ayonlashadi, unda so'zning barcha ma'nolari berilgan, ammo juda kamdan-kam hollarda u yoki iboralarning barcha ma'nolari ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, ingliz va qoraqalpoq tillari adyektiv iboralari ko'p ma'noliligini qiyosiy o'rganish iboralarni qo'shma terminlar, maqollar, aforizmlardan farqlash imkonini beradi. Quyida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bir qator adyektiv iboralarning polisemiya darajasi taqqoslangan. Misollar:

Ingliz tilida: *As cold as ice* – 1) Muzday sovuq; 2) (odam haqida) beparvo, befarq, sovuqqon, bee'tibor.

Muzday suvıq – 1) Muzday sovuq; 2) (odam haqida) beparvo, sovuq, hissiz, muomalasi yo'q.

As clear as a day – 1) Juda yorqin, tiniq; 2) Tushunarli, ayon.

Qoraqalpoq tilida: *Kúndizgıdey jarıq* – 1) Juda yoruq, yorqin; 2) (odam haqida) yoqimtoy, chehrasi ochiq; 3) Tushunarli, ayon.

Mazkur tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi adyektiv iboralari sinonimik qatorlaridagi ayrim xususiyat va umumiyliklarni aniqlash va tavsiflashga harakat qilindi.

Chog'ishtirilayotgan tillarda ingliz tilidagi *as+Adj+as+Noun* tuzilishli va qoraqalpoq tilidagi *Noun+day+Adj* tuzilishli iboralar qiyoslanib, iboralar komponentlari o'zaro mos kelishi aniqlandi. Ingliz tilida qiyoslash vositasi *as* ko'makchisi, qoraqalpoq tilida esa *-day*, *-dey*, *-tay*, *-tey* qo'shimchalari ekanligi hamda *misli*, *kibi*, *yanlı* kabi ko'makchilar yordamida ham ifodalanishi asoslandi.

1) *as close as a brother* – misli bir tán-bir jan, bir anadan tuwılǵanday, bir uyadan ushqanday, egiz qozıday;

2) *hand and (in) glove with* – óz-ara qalıń qudalarday, arasınan qıl ótpeytuǵın, júzikke qas qondırǵanday, qol urısqań, shappat urısqań;

3) *as thick as thieves* (mud, fleas) – awzı bir(dey), awız jasasqań, tili bir.

Yuqoridagi sinonimik iboralarning alohida shakllanganligiga asoslanib, tahlil qilinayotgan tillarda adyektiv iboralarning keng tarqalganligini taxmin qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollarda ikkala tildagi bir ma'noli adyektiv komparativ iboralar sinonimik qatorlarini taqqosladik. Agar inglizcha misollarda adyektiv iboralar sinonim bo'lsa, ...*as close as brothers*, ...*as thick as mud*..., ...*hand in glove*..., qoraqalpoq tilida ularga quyidagi sinonimik qatorlar muqobil bo'la oladi: *bir tán*, *bir jan bolıp*..., ...*arasınan qıl ótpes*..., ...*egiz qozıday*..., ... *awzı bir*., - ularning tarkibiy

²³ Кунин, А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз / А.В. Кунин. - 3-е изд., перераб. - Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. - 381 с.

²⁴ Рахматуллаев Ш. Некоторые особенности узбекской фразеологии, автореф. Докт. Дисс. - Т., 1966.

tuzilishi qisman mos keladi. Qoraqalpoq tilidagi ... *bir tán, bir jan...*, ... *arasiman qil ótpes...*, ... *awızı bir...* kabi misollarda gohi - *day*, ... - *tay*, ... - *tey* komparativ qo'shimchalar yoki *misli, kibi* ko'makchilarining tushib qolishini kuzatamiz. Ammo bundan ushbu birikmalar o'z qiymatini yo'qotmaydi: ular gapning mazmunidan anglashinadi, gap tuzilishining o'zi uning komponentlari bo'lib xizmat qiladi.

Biz adyektiv komparativ iboralar variantlarini, va ularning frazeologik sinonimlardan (FS) farqlanishini aniqlash maqsadida mazkur tadqiqotda A.V.Kunin tomonidan taklif etilgan iboralar variantlari ta'rifidan foydalandik: "Frazeologik variantlar – leksik tarkibi, so'z shakllari yoki so'zlar tartibida farqlanashiga qaramay, umumiy leksik invariantga ega, ma'no sifati va miqdori, uslubiy va sintaktik vazifalari, boshqa so'zlar bilan birika olishi jihatidan o'zaro teng iboralar shakllaridir".²⁵

Odatda, birinchi komponent variatsiyaga uchrab, almashadi, chunki ingliz tilida sifatlarga keng sinonimiya xos bo'lib, faqat matnda sinonimlar bilan ifodalanadigan sifat bo'yoqlari ko'pincha ro'yobga chiqmay qoladi, shuning uchun butun iboralar ma'nosi o'zgarishsiz qoladi: (*as*) *swift/ quick as thought* – *qiyalday júyrik, ushqır qıyal yańlı*. Ingliz va qoraqalpoq tillarida komponentlar o'zgarishi adyektiv komparativ iboralarda yangi ma'no shakllanishiga olib kelmaydi: *as clear as day* (*noonday, daylight*) – *súttey jarıq, paxtaday aq, aq qağazday taza; as bold as a lion* – *arısladay aybatlı, dáwdey ğayratlı, qumırsqaday kúshli*.

Qoraqalpoq tilida variativlikning barcha shakllariga adyektiv komparativ iboralar komponentlarini bog'lovchi grammatik vositalari kiradi, ular doim morfologik jihatdan markerlangan shakllarda namoyon bo'ladi.

Iboralarlar o'rtasida farq yuzaga kelib, frazeologik variantlarning ajralishi ma'no bo'yoqdorligi va boshqa so'zlar bilan birika olishiga ko'ra farqlanadigan, leksik tarkibi qisman yoki to'liq mos kelmaydigan struktur frazeologik sinonimlari hosil bo'lishiga olib keladi.²⁶ Struktur sinonimlar frazeologik sinonimlar tarkibiga kiradi va uning faqat bir qismini namoyon etadi: struktur sinonimlar *as red as a beet, as red as blood* – *qızıl qan, quyashtay qızıl, almaday qızıl; as clear as a day, as plain as a day/daylight, as clear as cristal* – *tasqa basqanday anıq, soqırğa tayaq uslatqanday, attay anıq, attıń qasqasınday, bes sawsaqtay belgili (anıq); as happy as a prince/princess* – *ákesi tirilip kelgendey (shad); as happy as a king* – *basına baxt qısı qonğanday (más); as happy as Larry* – *jerden jeti qoyan tapqanday quwanışlı / quwanışı qoynına sıymaydı*.

Qoraqalpoq tilida *quwanışı qoynına sıymaydı, táriplewge sóz jetpeydi, dárya tassa tobiğman kelmeydi* tipidagi adyektiv iboralar murakkab ot-kesim sifatida qo'llanadi.

Yuqorida keltirilgan qoraqalpoqcha ekvivalentlarda komparativ element mavjud bo'lmasa-da (–«day» qo'shimchasi ingliz tilidagi «as...as» ga mos keladi), ushbu

²⁵ Кунин А. В. Фразеологическая вариантность и структурная синонимия в современном английском языке// Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. – Вологда, 1967. – С. 146.

²⁶ Кунин А. В. Фразеологическая вариантность и структурная синонимия в современном английском языке// Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. – Вологда, 1967. – С. 147-148; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: ВШ, 1986. – С. 108-112.

barqaror birikmalar ma'nosi, mazmuniga ko'ra ingliz tilidagi muqobillariga to'liq mos keladi.

Tadqiqotda frazeologik antonimiya muammosi frazeologiyada sinonimiyaga qarama-qarshi kategoriya sifatida yoritilgan va u bilan ilmiy jihatdan chambarchas bog'liqlikda o'rganilgan.

Frazeologik antonimiya ikkita yoki bir nechta alohida frazeologizmlar o'rtasidagi qarama-qarshi ma'nolarda yuz beradi.

Ingliz tilida: *A bad name – a good name; In heart – out of heart; A hell on earth – heaven on earth;*

Qoraqalpoq tilida: *Qoyan jurek – er jurek; Salisi suwga ketiw (ketken) – darya tassa tobigina kelmeytugin; Qas penen kózdiń arasında – kesek güllegende;*

Yuqoridagi ingliz tili misollarini o'rganishda nutqning bir qismidagi frazeologik anotonimlar orasida bir xil ma'noni anglatuvchilar aniqlandi (yordamchi so'zlari bilan shakllanadi): *in heart – out of heart (shağında-yoshlı qapa – kewilsiz) up to date – out of date (zamanagóy – góne eski) at liberty – under lock and key (káypiń kálleńde, tórt jağı qubla – tórt diywaldırń ishinde).*

Tadqiq qilingan komparativ frazeologizmlarning semantik tahlili to'liq struktur-semantik ekvivalentlar ma'no hajmi hamda tanlab olingan leksik vositalarga ko'ra o'zaro mos kelishini ko'rsatdi, bu esa o'rganilayotgan iboralar semantikasida sezilarli umumiylikni ko'rsatadi. Ekvivalent iboralarda oziq-ovqat mahsuloti, modda, metall, qotishma, mineral, foydali qazilma, fauna, flora dunyosi vakillarini ifodalovchi ot o'xshatish obyekti sifatida ishtirok etishi mumkin, ularning har biri tadqiq qilinayotgan iboralar semantikasida muayyan rolni o'ynaydi.

Milliy o'ziga xos komparativ frazeologizmlar eng katta guruhni tashkil etadi. Milliy frazeologizmlarga maxsus paragraf ajratilgan bo'lib, unda adyektiv komparativ iboralarining semantik xususiyatlari ochib berilgan, shuningdek, tadqiq qilinayotgan tillarning ayrim frazeologizmlari etimologiyasi keltirilgan.

Semantika borasidagi ko'plab umumiy muammolarning ishlab chiqilganligi va mavzuiy guruhlar, sinonimik va antonimik qatorlar, semantik maydonlar, jumladan, frazeosemantik maydonlarni o'rganish borasida to'plangan tajriba ushbu ish doirasida semali tahlil asosida ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologiyasini sistem o'rganish imkoniyatini berdi.

XULOSA

1. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti ingliz va qoraqalpoq tillaridagi komparativ adyektiv frazeologizmlar shakllanishining konseptual asoslari hamda ularning diskursiv belgilarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillariga xos olamning lisoniy manzarasida komparativ adyektiv iboralarining roli va o'rnini, iboralar tuzilishi, ularning kognitiv-semantik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, to'plangan frazeologik material semantik-grammatik jihatdan tavsiflanib, mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflangan.

2. Metafora tabiatiga oid qator nazariyalar hamda komparativ iboralar metaforizatsiyasi jarayoniga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, metaforizatsiya tushunchasi talqini va hosil bo'lish mexanizmlariga oid qarashlarda muayyan farqlar

kuzatiladi. Ushbu tadqiqotda struktur-semantik, kognitiv va diskursiv yondashuvdan kelib chiqib, komparativ adyektiv iboralar kontseptual tushunchani shakllantirish asosi sifatida talqin qilingan.

3. Mazkur tadqiqotda belgilangan maqsad ingliz va qoraqalpoq tillari tizimidagi adyektiv komparativ iboralar strukturasi va semantikasini majmuaviy ravishda qiyosiy tahlil qilish hamda ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu adyektiv komparativ frazeologizmning lingvistik maqomini aniqlash, mazkur iboralarining tillararo qiyoslash tamoyillarini belgilash, tadqiq qilinayotgan tillarning o'ziga xos idioetnik xususiyatlarini inobatga olgan holda adyektiv komparativ iboralar variantlari qatorlarini ajratish, tadqiq qilinayotgan iboralar turining semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tavsiflash, ingliz va qoraqalpoq tillari adyektiv komparativ iboralarining tizimli munosabatlarini o'rganish, tahlil qilinayotgan iboralarining tillararo muqobil turlarini ajratish, adyektiv komparativ iboralar tarjima lug'atini tuzish uchun til materiallarini to'plash kabi bir qator vazifalarni hal etishga yordam beradi.

4. Turli tillar komparativ iboralarining strukturaviy-semantik tahlili komparativ frazeologizm – bu ikkita tarkibiy qismdan tashkil topgan lisoniy belgilarni bildiruvchi lingvistik hodisa ekanligi to'g'risidagi fikrlarni tasdiqlaydi:

a) birinchi komponent - o'xshatish asosi – aksariyat komparativ iboralarda o'z ma'nosida qo'llanadigan sifat turkumidagi so'z;

b) ikkinchi komponent - o'xshatish obyekti, ya'ni o'xshatiladigan predmet yoki hodisa.

5. Komparativ iboralar tuzilishini tahlil qilish joriy tasniflarni kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida ingliz tilida sifat+kabi+gerundial ifoda, sifat+kabi+egalik olmoshi/olmosh+ot; qoraqalpoq tilida sifat/sifatdosh+kabi+(sifat)+old ko'makchi+ot shaklida tarkibiy tuzilishga ega adyektiv komparativ iboralar guruhlarini aniqlandi. Komparativ iboralar struktur shakllarida ingliz tili grammatikasi qoidalariga mos kelmagan holda ham hosil bo'lishi mumkinligi aniqlandi, masalan, ibora sonidagi ot oldida artikl qo'yilmasligi mumkin. Tadqiqot davomida qiyoslanayotgan tillar adyektiv komparativ iboralar struktur nisbatining ikki xil shakli ajratildi: struktur-komponent muvofiqlik va struktur-komponentli farqlar.

6. Ingliz va qoraqalpoq tillari tizimidagi o'rganilayotgan frazeologizmlar strukturasiidagi sezilarli umumiylik to'g'risida xulosa qilish imkonini berdi. Sifat + kabi + ot shaklidagi eng ko'p uchraydigan komparativ frazeologizm struktur-komponentli muvofiqliklar turiga mansub bo'lib, unga yana beshta struktur shakl kiradi. Muayyan konstruksiyalarni tanlash aniq bir kontekst va aloqa maqsadlariga qarab farq qilishi mumkinligi aniqlandi. Ingliz tili xalqaro til sifatida turli nutq muhitida keng tarqalgan bo'lishi mumkin, qoraqalpoq tili esa joylashuvi va maqsadli auditoriyasi jihatidan ancha cheklangan bo'ladi.

7. Sifat va hol so'z turkumiga mansub qoraqalpoq va ingliz iboralari bir umumiy ma'no asosida birlashadigan frazeologizmlarning individual ma'nosi qarama-qarshiligiga asoslangan ichki frazeologik antonimik munosabatga kirishib, bunday frazeologizmlar antonimiyasi sinonimiya bilan chambarchas bog'liq va ikki

sinonimik-variativ qator semantik qarama-qarshilik munosabati asosida o'zaro bog'langanda, iboralar ham antonimlar juftligini, ham antonimik-sinonimik bloklarni hosil qiladi.

8. Ingliz va qoraqalpoq lingvomadaniy hamjamiyatlarining tarixiy o'tmish, xudo bilan ruhiy aloqa, shuningdek, hayvonot olamiga bo'lgan qadriyatiy munosabatlari uyqashligi, shuningdek, ingliz va qoraqalpoq adyektiv iboralar obrazlari milliy an'analar, urf-odatlarga borib taqalishi hisobiga ularning ikkala etnik guruh qadriyatlari paradigmasidagi umumiylikni qayd etish mumkin.

9. Onomasiologik nuqtai nazardan adyektiv iboralar predmetlarni nomlash, bizni qurshab turgan olam realiyalari haqida axborot berish qobiliyatiga ega lisoniy tuzilmalar sifatida tahlil qilinib, ushbu iboralar milliy-madaniy o'ziga xoslikka ega bo'lib, inson ongida uning dunyo qarashi asosida shakllanadi.

10. Ushbu tadqiqot KAlar shakllanishining konseptual asoslari va undagi farqlarni tadqiq qilinayotgan tillar o'rtasidagi nutqiy xususiyatlar ko'lamida tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Bu tilshunoslar, tarjimonlar, o'qituvchilar va boshqa mutaxasislarni har bir kishi uchun qiyosiy munosabatlarni turli kontekstlarda aniqroq va samarali ifodalash kunikmasini egallash uchun foydali bo'lishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

САПАРОВ САЛАМАТ ПЕРДЕБАЕВИЧ

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ
КОМПАРАТИВНЫХ АДЪЕКТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ
ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
(на примере английского и каракалпакского языков)**

**10.00.06 –Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil3567.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета www.karsu.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Сафаров Шахриёр Сафарович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдиназимов Шамшетдин Нажимович
доктор филологических наук, профессор

Юлдашев Акмаль Гуломжонович
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «22» июня 2024 года в 10.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 по присуждению учёных степеней при Каракалпакском государственном университете (Адрес: 230112, г. Нукус, улица Ч.Абдирова, д. 1. Tel.: (99861) 223-59-25.; факс: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (Зарегистрирован за номером 145. Адрес: 230112, г. Нукус, улица Ш.Абдирова, д. 1. Tel.: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан «31» мая 2024 года.
(Протокол реестра рассылки за номером 3 от «31» мая 2024 года).



М.С.Кудайбергенов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.Е.Сейтжанов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней кандидат филологических наук, профессор

Г.А.Курбаниязов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике особое значение придается лингвокогнитивным и лингвокультурологическим особенностям компаративным адъективным фразеологизмов. В рамках сопоставительной лингвистики фразеологизмов стремительно развивается научная работа, в результате данных исследований осмысливаются такие проблемы, как классификация фразеологизмов, национально-культурные особенности, информация внутреннего и внешнего уровня. В частности, все большее значение приобретают активизация сопоставительных адъективных единиц как средства общения и вопросы выявления национально-лингвистических особенностей в области когнитивной лингвистики. Акцентирование внимания на концептуальные основы образования компаративных адъективов и их лексико-семантических особенности, в том числе определении концептуальных основ языковых единиц, порождает необходимость определения лексико-семантических особенностей языка.

В мировом языкознании ученые уделяют внимание таким приоритетным направлениям, как определение структурно-семантических и лингвокультурологических особенностей фразеологических единиц в рамках сопоставительного языкознания. В основном исследования проводятся по определению уровня интенсивности фразеологических единиц, разделению экспрессивных и эмоциональных сем, признаков цветовых компонентов в составе фразеологических единиц, и сравнительных структур. Вместе с этим возникает необходимость дальнейшего усиления исследований по сравнительно-типологическому исследованию иностранных языков по отношению к каракалпакскому языку в направлении фразеологии посредством метода синхро-сопоставительного моделирования фразеологизмов.

В последние годы работа, направленная на изучение иностранных языков и сопоставительных исследований в Узбекистане, приносит свои плоды. В частности, «...в эпоху глобализации для каждой нации, каждого независимого государства естественно обеспечивать свои национальные интересы и в связи с этим, прежде всего, сохранять и развивать свою культуру, древние ценности, национальные ценности языка»²⁷. Одновременно ведется работа по таким вопросам, как изучение гармонии языка и культуры в области языкознания. В рамках сопоставительной лингвистики фразеологическая система, основанная на критериях когнитивной лингвистики, включающих дискурсивные свойства прилагательных фразеологизмов, рассматривается как исследование, не изученное в монографическом аспекте.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит решению задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан

²⁷ Указ Президента Республики Узбекистан от 21.10.2019 №ПФ-5850

«Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» №УП-6097 от 29 октября 2020 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» № ПП-3775 от 5-июня 2018 года, «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» № ПП-5117 от 19-мая 2021 года, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию нормативно-правовой базы для научных исследований» № 133 от 9-марта 2020 года, а также в других нормативно-правовых актах связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.

Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением программы развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их осуществления».

Степень изученности проблемы. Существует ряд исследований, посвященных анализу отдельных аспектов компаративно-адъективных фразеологических единиц (КАФЕ): выражению категории интенсивности, дифференциации экспрессивной и эмоциональной сем в компаративных фразеологизмах, цветовых обозначений, сравнительной структуры адъективно-компаративных фразеологизмов. Универсальность устойчивых сравнений в системе языков способствует выделению структурных групп компаративных фразеологизмов в немецком, французском, польском, таджикском и других языках (Чернышева 1964, 1970; Степанов 1965; Гулумянц 1967; Неведомская 1973; Бабаев 1977; Назарян 1987; Понятина 1989)²⁸. В 1978 году В.М.Огольцева опубликовала фундаментальное исследование, посвящённое сравнительным конструкциям в русском языке.

Одной из последних работ, посвящённых изучению адъективно-компаративных фразеологизмов, является диссертационное исследование А.В. Терентьева “Адъективные компаративные фразеологические единицы как

²⁸ Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка (Фразеология как система и ее связь с системой лексики). Автореф. дис... доктора филол. наук. – М., 1964. – 27 с.; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М., Высшая школа, 1970. – 199 с.; Степанов Ю.С. Французская стилистика. – М., Высшая школа, 1965. 355 с.; Гулумянц К.М. Структура, семантика и употребление устойчивых сравнений польского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Минск, 1967. – 28 с.; Неведомская О. М. Компаративные фразеологизмы немецкого языка в сопоставлении с русским. Автореф. дисс. на соискание уч. степени канд. филол. наук: – Л., 1973. – 14 с.; Бабаев Э. Образные сравнительные обороты в современном английском и таджикском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – М., 1977. – 16 с.; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М., Высшая школа, 1987. – 288 с.; Понятина Т.П. Структурная и функционально-семантическая характеристика устойчивых сравнений современного французского языка. Автореферат дис. канд. филол. наук: – Киев, 1989. – 17 с.

языковая универсалия” (на материале английского языка)”.²⁹ Также имеется работа С.Г. Каримовой, посвящённая сравнительному анализу адъективных фразеологизмов метафорического характера в английском и русском языках, а также, изучению механизмов метафоризации на основе исследуемых фразеологизмов³⁰.

А.Н. Любовой исследованы адъективные компаративные фразеологизмы английского, немецкого и норвежского языков с целью выявления общих и специфических особенностей этих фразеологизмов.³¹

Языкознание нашей страны обогащается новыми исследованиями по лексикологии, грамматике, терминологии и другим направлениям лингвистики. Данные вопросы освещены в научных работах Е.Бердимуратова, А.Даулетова, А.Бекбергенова, А.Нажимова, А.Пирниязовой.³² Наряду с этим, в каракалпакском языкознании остаётся ряд нерешённых проблем, нуждающихся в дальнейшем исследовании. Труды Е.Бердимуратова, Ж.Ешбаева, С.Наурызбаевой, Г.Айназаровой, Т.Жумамуратова, Г.Кдырбаева, Г.Усенова, А.Худайбергенов³³ более близки к данной тематике. Созданные ими двуязычные фразеологические словари в некоторой степени отражают проблематику сравнительного анализа. Монография Ш.Кудьяровой «Қарақалпақ хәм қазақ тиллериндегі сөзлердің лексика-семантикалық өзгешеліктері»³⁴ характеризуется глубоким проникновением в данную тему, три раздела данной работы полностью посвящён сравнительному анализу фразеологизмов этих родственных языков.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертация выполнена в рамках научного направления на тему «Вопросы сопоставительного языкознания, переводоведения и лексикологии» научно-

²⁹ Терентьев А.В. Адъективные компаративные фразеологические единицы как языковая универсалия: На материале англ. яз.: дис..., канд. филол. наук: – Нижний Новгород, 1997. – 352 с.

³⁰ Каримова С.Г. Адъективные фразеологические единицы метафорического характера в английском и русском языках: Дис..., канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 169 с.

³¹ Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: Дис..., канд. филол. наук. – М., 2009. – 207 с.

³² Бердимуратов Е., Даўлетов А. Тил билимине кириспе. – Н.: 1988. – 67 б.; Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинде сөзлердің жасалығы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1979. – С. 27.; Нажимов А. Қарақалпақ тилинде жуп хәм текирар сөзлер. – Нөкис. 1979. – 180.; Пирниязова А. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы хәм оның стилистикалық имканиятлары //Монография. Нөкис, «Qaraqalpaqstan» баспасы. – 2020. –187 б.

³³ Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985.; Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент: Фан, 1972. –148 с.; Айназарова Г. Симметричные двухкомпонентные фразеологизмы в каракалпакском языке: Автореф. Дисс... канд. филол. наук. – Нукус., 2000.–19 с.; Джумамуратов Т. Русско-каракалпакский фразеологический словарь для школьников. Нукус: Каракалпакстан, 1985. – 204 с; Кдырбаева Г. К. "Мәң"- "адам" концептосферасы бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт....(PhD). – 2017.; Усенова Г.А. “MOTHER/АНА” Концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт....(PhD). – 2021.; Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулоқотда инсон характерини ифодоловчи фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалс. докт....(PhD). – 2022.

³⁴ Кудьярова Ш.Т. Қарақалпақ хәм қазақ тиллериндегі сөзлердің лексика-семантикалық өзгешеліктері – Нөкис: «Қаракалпакстан», 2008 – 90 б.

исследовательского плана Нукусского государственного педагогического института.

Цель исследования состоит из комплексного анализа группы адъективных фразеологических единиц с сопоставительной точки зрения, создания характеристики данной своеобразной составной части фразеологических единиц в английском и каракалпакском языках.

Задачами исследования являются:

